

## O'QUVCHILAR BILIMLARINI KAHOOT O'YINLI PLATFORMA YORDAMIDA BAHOLASH

**Jumanov Anvar Alisherovich**  
**Azimova Gulsum Tolibovna**  
**Ibotov O'ktamjon Navro'zovich**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU akademik litsey

**Annotatsiya:** Ishda yangi zamonaviy texnologiyalar asosida o'quv jarayonini samarali tashkil etish, fan yuzasidan o'zlashtirish kerak bo'lgan bilimlarni qabul qilish va ularni qayta ishlash jarayonlarini yaxshilash, o'quvchilarning mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini oshirish, bilimlarini o'yinli platforma yordamida baholash usullari haqida fikr bildirilgan. "Kahoot" test dasturidan fizika darslarida samarali foydalanish imkoniyatlari, ko'p sonli o'quvchilarni bir vaqtning o'zida qisqa muddatda bilimlarini baholash va darslarni zamonoviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda samarali tashkil etish metodlari haqida fikrlar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** Kahoot, test, samaradorlik, sifatli ta'lim, pedagogik texnologiya, interaktiv o'qitish.

Bugungi kunda fan va texnika va internet rivojlanishi jamiyatning axborotlashishiga olib kelmoqda. Axborot texnologiyalari hayotimizning turli jabhalariga keng va jadal kirib borishi axborotlashgan jamiyatni shakllantirishga zamin yaratmoqda. Axborotlashgan jamiyatning tashkiliy-texnologik asosini global tarmoq -internet tashkil etadi. Axborotlashgan jamiyat talablariga to'liq javob beradigan zamonoviy o'qitish texnologiyalaridan to'liq foydalangan holda dars o'tish, bugungi kundagi oliy ta'limda yetuk mutaxassislar tayyorlashda muhim o'rin egallaydi [1].


Axborot - kommunikasion texnologiyalarini ta'lim jarayoniga qo'llash hozirgi vaqtdagi eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib kelmoqda, sababi har bir sohada o'rganish, izlanish va tajriba orttirish uchun turli usullardan foydalanish kerak bo'ladi [2-4]. Shuning uchun bog'chadan tortib to yuqori saviyadagi ishlarni o'rganishda hozir yangi axborot - kommunikasion texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Elektron darsliklar va ta'lim platformalari: Moodle, Coursera, Khan Academy kabi platformalarda dars materiallari, mashqlar va testlar joylashtirilishi mumkin.

Video va audio materiallar: YouTube, TED Talks kabi platformalar orqali fanlar bo'yicha video va audio leksiylar va darslar ko'rilishi mumkin.

Interaktiv taqdimotlar: Prezi, Google Slides kabi vositalardan foydalanib, taqdimotlarni jonli va qiziqarli qilib tashkil etish.

Kahoot yordamida dars o'tish zamonaviy va interaktiv o'quv jarayonini tashkil qilishning samarali usullaridan biri hisoblanadi. Kahoot — bu o'quvchilarga savol-javoblar yoki viktorinalar shaklida bilim olish va o'zlashtirish imkoniyatini beradigan onlayn platforma.



Kahoot dasturitest kiritish bo'limining umumiy ko'rinishi

Quyida Kahoot yordamida dars o'tish bo'yicha amaliy qadamlar keltirilgan:

Bu saytdan samarali foydalanish uchun Kahoot veb-saytiga kiring va akkaunt yarating yoki mavjud akkauntingizga kiring. O'qituvchi sifatida ro'yxatdan o'tish va yordamchi vositalardan foydalanish imkoniyatini tanlang. O'qituvchi oldindan qanday mavzularni qamrab olishni va qanday bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishni, o'quvchilarga qanday turdagi savollar yoqishi va ularni qiziqtirishini oldindan rejalashtirgan bo'lishi kerak [5-7]. Testni yaratish uchun "Create" tugmasini bosib, yangi Kahoot yaratishni boshlang. So'ngra savollarni kerakli bo'lim va mavzularga mos holda kiring. Test tuzish jarayonida eng muhimi savollar turli formatlarda, testlar, qo'shimcha tasvirlar, video va boshqalar bo'lishi mumkinligini hisobga olish kerak. Har bir savolga javob variantlarini kiritish va to'g'ri javobni belgilash va savollarga vaqt limiti, ballar qo'shish muhimdir. Savollar va javoblarni interaktiv qilish mumkin. Masalan, savollarga tasvirlar, GIFlar va videolar qo'shish orqali ularni qiziqarli qilish mumkin. Dars vaqtida o'quvchilarni onlayn yig'ib, play tugmasini bosib, o'yinni boshlash va o'quvchilarga Game PIN kodini berish orqali test o'yinini boshlash mumkin. O'quvchilar o'z qurilmalarida (smartfon, planshet, noutbuk) Kahoot veb-sayti yoki ilovasiga kirib, PIN kodni kiritib o'yinga qo'shilishlari mumkin. O'yin jarayonida o'qituvchi ekranida savollar va javob variantlari chiqadi, talabalar o'z qurilmalari orqali javob beradilar, har bir savoldan keyin to'g'ri javob va talabalarning ballari ko'rsatiladi. Kahoot platformasi o'quv jarayonini jonli, interaktiv va qiziqarli qilib tashkil etishda yordam beradi. Talabalar o'quv jarayoniga faol qatnashishlari va o'z bilimlarini baholashlari mumkin. Bu esa darslarning samaradorligini oshiradi [8].

**Xulosa.** Ko'pgina o'qituvchilar ta'lim jarayoniga yangi texnologiyani qo'llashga qarshi chiqmasada, ulardan keng foydalanishni unchalik ham xush ko'rmaydilar. Chunki yangi texnologiyalar uchun juda ko'p texnik vositalar, zamonoviy bilimlar talab qiladi deb hisoblaydi. "kahoot" nafaqat ochiq kodli dastur shu bilan birga kahoot o'qituvchi va o'quvchilardan ortiqcha jihozlar talab qilmaydi. Bu esa "kahoot" dan foydalanishning afzalliklarini yanada oshiradi. Kahoot esa ta'limning sifat va samaradorligini oshirishga va darslarni qiziqarli olib borilishiga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X.N.Karimov, A.E.Imamov, E.Z.Imamov, //Development of creative thinking in higher education// Science and innovation» international scientific journal. (<https://zenodo.org/doi/10.5281/zenodo.7650805>)

2. X.N.Karimov. // Fizika fanini o‘qitishda virtual laboratoriya ishidan foydalanish // “Yosh olimlar, doktorantlar va tadqiqotchilarning onlayn ilmiy-forumi” materiallar to‘plami. –P. 102-104  
([https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=i5SoNTcAAAAJ&pagesize=80&citation\\_for\\_view=i5SoNTcAAAAJ:qxL8FJ1GzNcC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=i5SoNTcAAAAJ&pagesize=80&citation_for_view=i5SoNTcAAAAJ:qxL8FJ1GzNcC)).
3. X.N.Karimov, M.M.Asfandiyorov, M.A.Axmadov. // Zamonaviy yondashuvlar asosida fizika o‘qitishni rivojlantirish // “Yosh olimlar, doktorantlar va tadqiqotchilarning onlayn ilmiy-forumi” materiallar to‘plami. 2023. –P. 113-115.
4. E.Z.Imamov, Kh.N.Karimov, S.SXalilov, A.E.Imamov. // The future belongs to learning with an active process of self-education of students // // “Science and innovation” international scientific journal. Volume 1 Issue 5. 2022. -C. 479-482.  
(<https://scientists.uz/view.php?id=1272>)
5. Axmadov M. // Pedagogik dasturiy vositalar yordamida fizika fanini o‘qitish //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 90-92.  
  
([https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=Tl5hqLkAAAAJ&citation\\_for\\_view=Tl5hqLkAAAAJ:dhpJJ7xvgBgC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Tl5hqLkAAAAJ&citation_for_view=Tl5hqLkAAAAJ:dhpJJ7xvgBgC))
6. B.B.Turdiqulov, O‘S.Nazirov, Yu.N.Karimov. // Atom va molekullarning yorug‘likni yutishi va nurlanishi // UIF = 8.1 | SJIF = 5.685. 2022. –C. 1252-1258.  
([https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=HF\\_\\_xJoAAAAJ&citation\\_for\\_view=HF\\_\\_xJoAAAAJ:u5HHmVD\\_uO8C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=HF__xJoAAAAJ&citation_for_view=HF__xJoAAAAJ:u5HHmVD_uO8C))
7. X.Sh.Asadova, Yu.N.Karimov. // Effective organization of the educational process based on new modern technologies // “Science and innovation” international scientific journal. Volume 1 Issue 7. 2022. -S. 230-233.  
([https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=HF\\_\\_xJoAAAAJ&citation\\_for\\_view=HF\\_\\_xJoAAAAJ:2osOgNQ5qMEC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=HF__xJoAAAAJ&citation_for_view=HF__xJoAAAAJ:2osOgNQ5qMEC)).
8. Kh.N.Karimov. // Methods of self-education in teaching students physics using ict-information and computer technologies // “Galaxy international Interdisciplinary Research Journal”, 11(2), -C. 471–475. (<https://giirj.com/index.php/giirj/article/view/4889>).